



## UZUMNING SANOATBOP NAVLARINI YETISHRISH USULLARIGA DOIR MAVZULARNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA TASHKIL ETISH

<sup>1</sup>Jo'lbekov Ibrohim Salimqul o'g'li

<sup>2</sup>Ungarov Azizbek Abdumo'min o'g'li

<sup>3</sup>Umrzoqova Iroda Sobirjon qizi

Guliston davlat universiteti

<sup>4</sup>Adhamov Azizjon Rustam o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti

### ARTICLE INFO

Received: 29<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 07<sup>th</sup> June 2023

Online: 08<sup>th</sup> June 2023

### KEY WORDS

*Innovatsion texnologiya, interfaol medot, Genetik, mikrobiolog, agrosanoat.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada uzumning sanoatbop navlarini yetishtirish usullarini talabalarga innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishning samaradorligi, o'quv jarayonida turli xil interfaol metodlarni qo'llashning unimi to'g'risida fikr va mulohazalar yuritiladi. Hozirgi kunda soha bo'yicha malakali mutaxassislarga bo'lgan talab va ushbu talabni qondirish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlar bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tiladi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 28 iyul sanasida qabul qilingan "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5200-sonli qarori ijrosini ta'minlash uzumning texnik navlarini seleksiyani rivojlantirish, navli uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar turlarini kengaytirish masalalarini hal etishni taqozo etadi[1].

Ushbu qarorda keltirib o'tilgan 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba uzumchilik yo'nalishida "eng yaxshi uzum navi", "eng yaxshi intensiv tokzor", "eng yaxshi mahalliy uzum navi", "eng yaxshi vino mahsuloti" kabi nominatsiyalarda o'tkaziladigan respublika ko'rik tanlovi ta'sis etilishi soha olimlarini yanada ma'suliyat va g'ayrat bilan ishlarni tashkil etishga undamoqda

Jahonda yetishtirilgan uzumni 85 foizi turli tipdagi sharoblar, konyak, alkagolsiz ichimliklar, konsentrat va quritilgan mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlataladi. Uzum shingilini qattiq qismlarining tabiiy kimyoviy moddalarga boyligi, sharoblarning tipikligini, turlarini, assortimentini kengaytirishga imkon beradi. Uzum osson qayta ishlanadi va tayyor mahsulotni sifatini, mazzasini va parxez hususiyatlarini ta'minlaydi. [2].

2020 yilda soha karxonalari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 102,1% (5,4trln so'mni) tashkil etgan.

Natura holda 2mln.dal vino, 272mln.dal konyak, 6,7 mln. dal iste'mol spirti ishlab chiqarildi.

Uzumning mashhur sanoatbop hamda serhosil, sovuqqa, qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli, mahsulot sifati yuqori bo'lgan mahalliy va horijdan keltirilgan introduksiya qilingan



uzumchilikning navlari pitomniklardan har yili 10mln dona sertifikatlangan va viruslardan holi tok ko'chatlari etkazib turadi.

Uzumchilikni rivojlantirish bo'yicha oshirilgan ishlar:

Yangi texnologiyalarni -tomchilab sug'orish texnologiyasini joriy qilib 6,1 hektar, ya'ni 122% maydonga yangi tokzorlar yaratildi. Vinochilikni rivojlantirishga 33,4 b, bog'dorchilik va issiqxona xo'jaliklariga 14,3 mlrd so'm mablag' ajratildi. Yangi tokzorlarni barpo etishga 28,4mlrd imtiyozli kredit ajratilgan. Har yili 30-dan ortiq ko'chatxonalar 40 mln dona sertifikatlangan va eksportbop xo'raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko'chatlari yetkazadi. [3].

Uzumchilikda hozirgi kunda ilmiy-tajribalarga asoslangan agrotexnologiyalar qo'llanib kelinmoqda.

Bugun qishloq xo'jaligi sanoatining ilm-fanni talab qiluvchi tarmog'iga aylanib bormoqda. Genetiklar, mikrobiologlar va boshqa olimlarning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda, mahaliy meva va sabzavotlarning ko'plab navlarini yetishtirish hamda ilg'or texnologiyalarini rivojlantirish mumkin. Agrosanoat majmuasining muhim tarmoqlaridan biri hissoblangan uzumchilikni ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar asosida rivojlantirish davr talabi hissoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib malakali hamda zamon bilan hamnafas bo'lgan soha mutaxassislarni tayyorlash eng birinchi vazifa hissoblanadi. Shunday ekan Mevachilik va uzumchilik yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga interfaol metodlardan foydalangan holda dars berish jarayonlarini tashkil etish, amaliy mashg'ulotlarni to'g'ridan-to'g'ri tashkil etilgan dala tajriba maydonlarida olib borish albatta o'z samarasini beradi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi.

Interfaol metodlardan foydalanganda o'qituvchi talabani dars jarayonida faol ishtirok etishga chorlaydi. Talaba butun dars jarayonida ishtirok etadi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.
2. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinamazingina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategic yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.
3. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.



# EURASIAN JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION

Innovative Academy Research Support Center

Open access journal

[www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)

Interfaol ta'lif metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faoliyklarini oshirib, ta'lif samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Dars jarayoni markazida talaba shaxsi, uning extiyoji bo'lmos'i lozim. O'quv jarayoni uning hoxish, istagiga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lmos'i talab etiladi. Shaxsga qaratilgan talim talabani o'quv – biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, extiyojini, hoxish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. [4]

Innovatsion, interfaol talim o'qituvchi va talabaga doimiy ijodiy izlanish, uzlusiz o'z shaxsini rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Yuqorida aytganimizdek, butun dars jarayonida e'tibor talaba shaxsiga, uning qiziqish, hoxish, istagiga, extiyojiga qaratilmog'i kerak. Yani talimni individuallashtirishga qaratilmog'i talab etiladi. Endi ta'lifni individuallashtirish deganda nimani tushunish kerak? degan savolga javob beraylik. Demak, ta'lif sifati va samaradorligi talabaning ta'lif mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda talabalarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin: Talaba o'qilibgina qolmay, mustaqil o'qish, o'rganish, ishlashga, o'zlashtirishga o'rnatiladi.

Talabalarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rnatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o'z nuqtai nazarini himoya eta olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Talabaga bilimlar tayyor holda berilmasdan, uzumchilikka oid bilimlarni birgalikda dars jarayoniga olib kirilgan tabiiy novda bo'laklari, bog'ish qurollari va navlariga oid rangli rasmlar bialn fan mavzularida ko'rildigan masalalarni birgalikda bajarib yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hato va kamchiliklar choralar izlab topish, qayta ishslash orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi. Talabaning darsliklar bilan ishslash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyotlar va manbalardan foydalanib, mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rnatiladi. Guruhdagi barcha talabalarni o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishlari kafolatlanadi. Talabaning o'zlashtirganligini, olgan bilimlarini kundalik hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi. [5].

Ta'lif tizimida mevachilik va uzumchilik fanlarini o'qitish jarayonida o'qituvchi inovatsion texnologiyalardan foydalanib ta'lif oluvchilarga uzumning sanoatbop navlarini yetishrish bo'yicha keng va samarali ma'lumot berish mumkin. Shuningdek, mavzularni o'tishda turli xildagi animasiyalardan dars jarayonida foydalansa talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil o'qib o'rganish qobiliyati, fanga bo'lgan qiziqishi ortadi. Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ridan to'g'ri tashkil etilgan dala tajriba maydonlarida olib borish albatta o'z samarasini beradi deb hissoblayman. Sababi Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ridan to'g'ri tashkil etilgan dala tajriba maydonlarida olib borish talabalarga bevosita meva daraxtlarini o'zi parvarish qilish, o'simlikda o'suv fazalarida kechayotgan o'zgarishlarni kuzatish, amaliy mashg'ulotlarda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni dala tajriba maydonidagi tokzorlarda bajarish imonini beradi

Taklif sifatida quyidagi fikrlarni keltirmoqchiman:

- uzumning sanoatbop navlarini yetishrish usullariga doir mavzularda interfaol metodlarni qo'llash orqali talabalarga o'ziga bo'lgan ishonch fanga oid olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishga yordam beradi;



- amalish mashg'ulotlar jarayonini to'g'ridan to'g'ri ekin maydonlarida olib borish talabalarga olayotgan bilimlarini yanada chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi;
- talabalarning fikr va mulohaza yuritishiga ta'sir qiluvchi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars ishlanmalar ishlab chiqish, dars jarayonida mavzuga oid qisqa metrajli videoroliklardan foydalanish;
- guruhdagi talabalarga muhitiga mos ta'lif vositalari va interfaol metodlar, psixologik ta'sir o'tkazuvchi usullarni tanlay bilish;

## XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Yuqoridaqilardan kelib chiqib Mevachilik va uzumchilik yo'nalishida ta'lif olayotgan talabalarga interfaol metodlardan foydalangan holda dars berish jarayonlarini tashkil etish, amaliy mashg'ulotlarni to'g'ridan-to'g'ri tashkil etilgan dala tajriba maydonlarida olib borish albatta o'z samarasini beradi. Ko'rgazmali va tarqatmali materiallarni dars jarayonida boshqa barcha interfaol metodlar bilan birga qo'llab, dars samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Ushbu imkoniyatdan qanday foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Bu jarayonda o'qituvchi ijodkor bo'lishi va chuqur, xar tomonlama bilimga ega bo'lishi lozim. Darslarida interfaol o'qitish usullaridan keng foydalanishi, talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xarakat qilishi lozim.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021 yilning 28 iyul sanasida qabul qilingan "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5200-sonli qarori. 8-bandı.
2. N.A.Akbarova. P.E.Egamberdiyev "Alkagolli mahsulotlar xom-ashyosi" O'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018. 12-13b
2. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lif metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent -2017
3. Sapaeva Z.Sh., Abdullaeva B.A. Sapaev D.X. ."Vinochilik texnologiyasi (Uzumni qayta ishlash texnologiyasi va uzumchilikni iqtisodiy taraqqiyoti)" fanidan o'quv qo'llanma. Tashkent: Noshir nashriyoti, 2019.-244b
4. 5."Dars jarayonida yangi ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish" "Science and Education" Scientific Journal" 2023 yil.440-442 b
5. Ummatov B., Juraboyeva M., Julbekova G. TEACHING LITERACY TO YOUNG CHILDREN //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 101-103.
6. JURNALI S. O. N. I. T. USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS.
7. Adhamov A., Ungarov A., Jo'lbekov I. PROSPECTS OF USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN AGRICULTURAL SECTOR DEVELOPMENT //Journal of Agriculture & Horticulture. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 13-15.
8. Ungarov A., Sirojiddinov A. AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISHDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ISTIQBOLLARI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 3. – С. 16-18.



# EURASIAN JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION

Innovative Academy Research Support Center

Open access journal

[www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)

9. Ungarov, Azizbek. "INNOVATIVE METHODS OF FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING." *International Conference On Higher Education Teaching*. Vol. 1. No. 2. 2023.
10. Ergashov A., Maxmudov I. KECH PISHAR OLMA HOSILINI TURLI OMBORLARDA SAQLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 2. – С. 108-112.
11. Рахматов О. и др. Разработка трёхвалкового аппарата для пластификации вяленой дыни //Наука, техника и образование. – 2019. – №. 9 (62). – С. 41-43.
12. Ergashov A., Jo'lbekov I. OLMANI UZOQ MUDDATGA SAQLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 20-23.
13. Mamatova, Yulduz, Ibrohim Jo'lbekov, and Azizjon Adhamov. "QURITISH UCHUN MO'LJALLANGAN UZUM NAVLARINI TOVAR VA TEXNOLOGIK SIFATI TAHLILI." *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences* 2.6 (2022): 97-99.
14. Otaboyev, Muhammad, and Ibroxim Qabulov. ""Bek cluster" korxonasida paxta tolasini saqlashda foydalanilayotgan zamonaviy qurulmalar tasnifi. Paxta xom ashyosini saqlashda namlikning tolasifatiga ta'sirini ilmiy asoslash." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.6 (2022): 174-177.
15. Курбонов Э. ОБОСНОВАНИЕ ШИРИНЫ МЕЖДУСЛЕДИЯ ЗУБЬЕВ РЫХЛИТЕЛЯ НАВЕСНОГО БОРОНОВАЛЬНОГО АГРЕГАТА //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 997-1002.